



ISSN 2181-1571

FarDU. ILMIY XABARLAR

IJTIMOYIY FANLAR



2/2025



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket Ilmiy ishlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof.
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, prof.
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof.
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zR FA t.f.d., prof.	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof.
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof.	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Sidoarjadagi Muhammadiya universiteti, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof.	SCOTT LEVI (AQSH)	Ogayo davlat universiteti, PhD, prof.
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof.	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozog' milliy pedagogika universiteti
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof.	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk Universiteti
ABDULLAEVA Z (Qirg'iz Respublikasi)	OshDU k.f.n., dots.	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof.		

Tahririyat kengashi

IJTIMOIY FANLAR BO'YICHA			
XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof.
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc).
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof.	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof.	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots.	QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d., prof.
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots.
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.	FarDU, t.f.b.f.d., prof.
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.	FarDU, t.f.b.f.d., dots.
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots.		

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d., prof.

Texnik muharrir: Sheraliyeva J.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishlash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida 6

A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining o'рни 9

A.Y.Toyirov

Hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'рни 16

A.A.Qambarov

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi 21

G.T.Kabulniyazova

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi 27

X.N.Xolmirzaev

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati 32

S.S.Evatov

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili 37

I.A.Asatulloev

Erix fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiati deformatsiyasi 40

B.X.Tolipov

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlari 46

Sh.Q.Oxunova

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi 50

M.K.Soipova

Fazl Ibn Axmadning ontolgik qarashlari 54

L.K.Axatov

Irfoniy qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida) 59

J.A.Mamanov

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari 63

I.I.Umrzakov

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar 70

Sh.A.Ismailov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari 74

R.S.Raupova

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'рни 78

M.A.Rahmonova

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'рни 84

D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandasi 92

B.B.Dehqonov

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalarining o'рни va ahamiyati 96

A.Z.Sharipov

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi sifatida 102

L.B.Ikromova

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi 107

A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov

Islom qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati 111

G.M.Bozorova	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari	115
L.S.Sultonova	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni	119
U.K.Kurbanova	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili	124
M.H.Mo'minova	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni	128
K.J.Ochilova	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili	132
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi	136
R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim.....	141
P.X.Qaxorov	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi	147
U.M.Paxriddinov	
Globallashuv jarayonlarining O'zbekistondagi mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili	152
Z.B.G'ulomov	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari	158
A.A.Tojiddinov	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari	164
G.A.Qamariddinova	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili	172
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili	175
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism)	180
Z.I.Narziyev	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba	185
M.M.Mamasaliyev	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

SIYOSAT

T.A.Azizov	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari	193
S.U.Yuldashev	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish	197
O'.N.Ahmedova	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'naviy tarbiya strategiyasi	201
X.R.Ikramov	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati	205
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	210
G.B.Umarova, A.Nurullaeva	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi	214
S.S.Yakubov	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi.....	218

J.Sultonov

Chingizxon va Jin davlati o'rtasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili 224

M.A.Boltaboyev

Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'lmagan aholiga nisbatan olib borgan zo'rvonlik siyosati..... 234

Sh.B.Jumayeva

Globallashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat 239

M.R.Sodiqova

Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni (1991-2021-yillar) 244

A.X.Nigmatov

Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari 251

M.B.Nazirov

Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri 257

B.N.Rizayev, Б.Н.Ризаев, B.N.Rizaev

A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi 260

M.A.Maxmudov

XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati..... 266

I.B.Boxodirov

Birinchi jahon urushi yillarida turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi..... 270

J.Sultonov

Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi 273

O.B.Nizomiddinov

O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida) 279

O.H.Jaynarov

O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari)..... 284

O.M.Normatov

Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida 289

Y.A.Shukurillayev

Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari..... 293

ILMIY AXBOROT

Z.X.Oxunova

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagi falsafiy yondashuvlar 297

X.J.Isomiddinov

Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlar 300

M.B.Nazirov

Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri 304



UO'K: 338.1

A.N.KASIGIN ISLOHOTLARINING O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA JORIY ETILISHI**THE REFORMS OF A.N. KASIGIN AND THEIR IMPLEMENTATION IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN****РЕФОРМЫ А.Н. КАСИГИНА И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКИСТАНА****Rizayev Baxtiyor Nazarboevich** 

Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedarasida dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Tarixda "Kasigin kursi" nomi bilan mashhur bo'lgan dasturni ishlab chiqarish jarayonida sanoat etakchiligini istisno etmagan holda, xalq xo'jaligini kompleks iqtisodiy yuksaltirishning mukammal, bir butun tizimini taklif etildi. Ushbu islohotlarni O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasiga ta'sirida tarmoqda bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi, yangi yo'nalish va imkoniyat eshiklari ochildi. Mazkur maqola, ayni shu islohotlarning qishloq xo'jaligida tatbiq etish jarayoni ochib beriladi.

Аннотация

В истории программа, известная как «курс Касигина», признавая ведущую роль промышленности в производстве, предлагает совершенную и целостную систему комплексного экономического подъема народного хозяйства. Влияние этих реформ на сельскохозяйственную отрасль Узбекистана привело к ряду изменений в отрасли, открыв новые направления и возможности. Данная статья раскрывает процесс внедрения этих реформ в сельское хозяйство.

Abstract

In history, the program known as the "Kasigin Course," recognizing the leading role of industry in production, proposes a refined and comprehensive system for the integrated economic uplift of the national economy. The impact of these reforms on the agricultural sector of Uzbekistan has led to a series of changes in the industry, opening new directions and opportunities. This article explores the process of implementing these reforms in agriculture.

Kalit so'zlar: A.N.Kasigin, islohot, dastur, kurs, intenzivlash, irrigatsiya-melioratsiya, o'sish, ixtisoslashtirish.

Ключевые слова: А.Н. Касигин, реформа, программа, курс, интенсификация, ирригация-мелиорация, рост, специализация

Key words: A.N. Kasigin, reform, program, course, intensification, irrigation-melioration, growth, specialization.

KIRISH

N.A.Kasigin sovet hukumati boshqaruvi elitasi vakillari orasida uzoq yillar mobaynida muvaffaqiyatli va sarmahsul faoliyat olib borgan, kamdan-kam uchraydigan davlat arboblardan biri edi. N.A.Kasigin o'zining noyob qobiliyati va xotirasi bilan Stalinning ham nazariga tushdi. Ko'p xonali sonlarni xotirasida bir pastda ko'paytira olish qobiliyati tufayli dohiy uni "arifmometro" deb atardi[1]. Kasigin xushomatgo'ylikni yoqtirmas, maxsus uyushtirilgan ziyofatlardan qochar, uning rahbarligida o'tgan yig'ilishlar zerikarli bo'lib, masala mohiyatini tushintirish va qo'l ostidagilardan ijrosini talab qilishi bilan yakun topardi. Qahramonimiz garchi katta siyosatda yuksak cho'qqini zabt etgan bo'lsa-da, safdoshlaridan o'ziga xos xususiyat - siyosiy ambitsiyaga e'tiborsizligi bilan ajralib turardi. Ayni shu xususiyati bilan u avtyuristik boshqaruv tizimining mashaqqatli sinovlaridan muvaffaqiyat bilan o'ta oldi. Keyinchalik, sovet hukumati yuqori va ma'suliyatli davlat lavozim – SSSR Ministrlar Soveti raisi bo'lib 16 yil (1964 – 1980 yy) faoliyat yuritdi. Uning mansab shohsupasidagi o'n olti yillik rahbarlik rekordini hali hanuz Rossiya hukumati mulozimlarining hech biri yangilay olganicha yo'q. Kasigin xizmat pillapoyalaridan birma - bir yuqorilab borar ekan, sotsialistik tuzum yutuq va kamchiliklari uning ko'z o'ngida tobora yorqin namoyon bo'ladi. Sovet hukumati uchun murakkab, jiddiy, muammoli masalalar aksariyat hollarda unga ishonib topshirilardi. Chunonchi, 1941 yil yoz - kuzida sanoat korxonalarini mamlakat g'arbidan, sharqiga ko'chirish ma'suliyati A.N.Kasigin zimmasiga yuklatildi. Shu yilni iyul-noyabr oylari mobaynida Sharqiy rayonlarga 1 523

TARIX

sanoat korxonasi, shu jumladan 1 360 harbiy zavodlar ko'chirildi. Keyinchalik poytaxt va Podmoskovyadan yana taxminan 500 yirik korxona ko'chirildi. Bu darajadagi ulkan ko'lamli ko'chirish tadbirlari jahon tarixida ilk bor kuzatildi[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Muallif, N.A.Kasigin dasturi tayyorlanishi, uning o'ziga xos xususiyati, amalga oshirish ko'zda tutilgan asosiy vazifalar hamda islohot ta'sirida O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligida sodir bo'lgan o'zgarishlar dinamikasini tarixiy genetik usulda tadqiq etadi. Sovet hokimiyati yillari nashr etilgan me'yoriy – huquqiy hujjatlar to'plami, milliy va mahalliy davlat arxivi materiallari, davriy matbuot hamda ilmiy-ommabop nashrlardan foydalangan holda, tanlangan muammo mohiyatini ochib beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

A.N.Kasigin mehnat karierasini sanoat kooperatsiyasidan boshlab, keyinchalik shu yo'nalishda bilim va boy tajribga orttirdi. 1964-yilda sovet hukumati rahbarlariga aylanganidan so'ng ham shu yo'nalishda mavjud nazariy hamda amaliy tajribalarini uyg'unlashgan holda amaliyotga joriy etishga intildi. Biroq, uning uchun qishloq xo'jaligi norentabl soha, unga investitsiya kiritish davlat uchun ortiqcha harajatdan boshqa narsa emasdi. Aksincha, L.I.Brejnev mutlaqo boshqa, ya'ni, qishloq xo'jaligini hukumat tomonidan har tomonlama moliyaviy qo'llab-quvvatlanmasdan turib rivojlantirib bo'lmaydi deb hisoblardi[3. –s. 181.]. A.N.Kasigining sotsialistik iqtisodiyot qonuniyatiga asosanib taklif etgan islohotlar dasturi, xususan, uning qishloq xo'jalik yo'nalishi birinchi sekretar L.I.Brejnev qarshiligiga uchradi. "Kasigin kursi", "Kasigin islohoti" nomlari bilan tarixga muhirlangan islohotlar butun xalq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimlarini iqtisodiy isloh qilishga mo'ljalandi. Lekin, dastlabki tajriba – sinov tariqasida faqat sanoat tarmog'i tanlanib, erishilgan natijalarga qarab boshqa tarmoqlarni ham asta-sekinlik bilan qamrab olish ko'zda tutildi. Zotan, ijtimoiy ishlab chiqarish sharoitida, butun ishlab chiqarish tizimi bir-biri bilan uzviy bog'langan, bir tarmoqda kuzatilayotgan inqiroz boshqa soha va tarmoqlarda ham aks sado berardi. Binobarin, keyinchalik Kasigin islohotlari butun xalq xo'jaligi uchun tatbiq etildi. Hukumat mulozimlarning har ikkalasi tomonidan tavsiya etilayotgan takliflar 1964-1965 yil SK KPSS plenumi qarorlarida aks etib, amaliyotga tatbiq etildi.

1964-yil fevralb Plenumi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini intensivlashtirish dasturini tasdiqladi. Partiya tomonidan ishlab chiqilgan intensivlashtirish kursi – qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yangi, yuqori bosqichi, sohani istiqbolda yuksaltirishni jadallashtirishning bosh yo'nalishi sifatida e'tirof etildi. Qishloq xo'jaligini intensivlash, dehqonchilik va chorvachilikni keng ko'lamda ximiyalashga e'tiborni kuchaytirish, sug'orishni har tomonlama rivojlantirish, amalda kompleks mexanizatsiyalash ishlarini yakunlash, qishloq xo'jalik moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jaligini ham eniga ham bo'yiga o'sishini ta'minlash vazifasi belgilandi[4. – c. 279.].

Xalq xo'jaligini kompleks isloh qilishi jarayonida, qishloq xo'jlik sohasida ham bir qator yangi tartiblar joriy qilindi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti respublikaning barcha aloqador va manfaatdor tashkilotlariga bir oy muddatda rayonlarga, rayonlar o'z navbatida har bir kolxoz va sovxozga paxta, kanop, tabak, tuxum, jun, ipak tolasi, qorako'l teri va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari bo'yicha davlat xaridlarining qat'iy belgilangan besh yillik rejasini ishlab chiqish va etkazib berishni topshirdi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish borasida, ayniqsa, mahsulot xarid qilishning prinsipial yangi tartibi joriy etildi. Kolxoz va sovxozlarga ishlab chiqarishning besh yilga mo'ljallangan qat'iy, real planini tayyorlashga imkon berdi.

1966-1970 yillarga mo'ljallangan besh yillik qat'iy planni ishlab chiqishda puxta, diferentsial yondashuv asosida har bir xo'jalikning tuproq va iqtisodiy sharoitlari, ishlab chiqarish imkoniyatlari, erishgan yutuqlari va istiqboli, xo'jalikni ixtisoslashtirish imkoniyati, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun talab etiladigan tovarlar, kolxoz a'zolarining shaxsiy manfaatdorligini ta'minlashga e'tibor qaratildi. Kolxozlar iqtisodini ko'tarish maqsadida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari narxi oshirildi, asosiy don ekinlari hosilining davlatga plandagidan ortiq topirgani uchun yuqori narxlar joriy etildi. Shu bilan bir vaqtda, ishlab chiqarishga kerakli bo'lgan ko'pgina mollar, kolxoz va sovxozlarga berilayotgan elektr energiyaning narxi kamaytirildi. Xalq iste'mol qiladigan sanoat va oziq-ovqat mahsulotlarining qishloq joylaridagi narxlarini pasaytirilib, shahardagi narxlariga tenglashtirildi[5. –b. 256]. Qishloq xo'jalik boshqaruvi sohasida iqtisodiy stimul oshirildi, xo'jaliklarning mustaqilligi va javobgarligi kengaytirildi, kolxoz hayotida demokratik tamoillari qaror topdi. Qishloq xo'jaligi korxonalari ishlab chiqarishini yanada takomillashtirish maqsadida, amaldagi planlashtirish tartibi

o'zgartildi, ya'ni, qilingan mehnat evaziga, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yakuniy natijalariga ko'ra mehnatga haq to'lash tizimi tatbiq etildi. Kolxoz ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, kolxozchilarini o'z mehnatidan moddiy manfaatdorligi asosiy mezon qilib olindi.

N.A.Kasigin tashabbusi bilan tatbiq etilgan, islohotlar dasturi ta'siri dastlab, O'zbekiston paxtachilik sohasida sezila boshladi. Paxtachilikni yanada rivojlantirish, paxta hosilini yig'ib-terib olish ishlarini mexanizatsiyalashni yanada kengaytirish jadallashdi. Kolxoz va sovxoz rahbarlarining qishloq xo'jalik texnikalaridan foydalanishni yaxshilash va saqlash ma'suliyati kuchaytirildi, injener-texnik xodimlar javobgarligi oshirildi, barcha mexanizatorlardan texnikadan to'g'ri foydalanish va saqlash talab etildi, bu ishlardan ularning manfaatdorigi masalasi muhokamaga qo'yildi. Mashina-traktor parklari kolxoz va sovxozlarga texnik xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash ishlari qat'iy nazoratga olindi. Mexanizator kadrlarni tizimli ravishda tayyorlash, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining barcha jarayonlarini mexanizatsiyalash tadbirlari kuchaydi.

Moddiy manfaatdorlik, real vaziyatni hisobgan olgan holda, mustaqil ko'rilgan choralar o'zining joriy natijasini ko'rsatdi. Paxtakorlar davlatga topshirgan birinchi sort paxta uchun qo'shimcha ravishda 116 million so'm, g'alla va chorvachilik mahsulotlarining davlat xarid narxlarini oshirilgan tufayli 12,3 million so'm qo'shimcha daromad qildilar[6. –s. 24.].

Dastur doirasida kolxoz-sovxoz ishlab chiqarishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat bankidan katta miqdorda kredit ajratildi. Ushbu kredit mablag'lari qishloq joylarida, kolxozchilar uchun individual uy-joy qurish hamda mehnatga kafolatli haq to'lash uchun yo'naltirildi. Qurilish uchun ajratiladigan kredit miqdori uning hajmidan kelib chiqib, ittifoqdosh respublika Ministrlar Soveti tomonidan 700 rubl dan 1500 rublgacha belgilanadi[7.]. Darhaqiqat, dehqonchilik va chorvachilikni yuksaltirish qishloq qurilishining holatiga bog'liq edi. Qishloq qurilish ishlari ikki yo'nalishda, birinchisi ishlab chiqarish ahamiyatiga molik bo'lgan qurilishlar, ikkinchisi qishloq infratuzilmasiga tarkibiga kiruvchi kapital qurilish yo'nalishlarida olib borildi. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish maqsadida Qishloq Qurilish Ministrligi tashkil etildi. 1965 yilda qishloqda qurilish ishlarini bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan 30 ta maxsus ko'chma mexanizatsiyalashgan kolonnalar tuzildi[8].

Qishloq aholisi ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratildi, jumladan, sobiq kolxoz a'zolariga nafaqa berish tizimi ishga tushdi. Qarilik, nogironlik va oila a'zolaridan birining baxtsiz hodisa tufayli mehnat layoqatini yo'qotganligi uchun 1965-yilning 1-iyunidan nafaqa to'lana boshlandi[9]. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun kolxozlarga moliyaviy yordam ko'rsatildi. Mazkur yordam, ijtimoiy fond va kolxozchilar sof daromadlarini o'sishi, kolxoz a'zolarining moddiy manfaatdorligini oshirishga xizmat qildi.

Sovet hukumati SSSR davlat banki tomonidan ajratilgan, kolxozlar zimmasida bo'lgan 2010 mln. rubl miqdordagi ssuda, shu jumladan uzoq muddatli 1450 mln., qisqa muddatli (ilgari kechiktirilgan) 560 mln rubl ssudalardan voz kechdi. O'zbekiston SSR moliyaviy zaif kolxozlarining 28,3 million so'mlik uzoq va qisqa muddatli qarzlardan voz kechildi[10]. Natijada 143 ta iqtisodiy qoloq bo'lgan kolxozlardan 132 tasi qoloqlikni engib o'tdi. Kolxozlar sof daromadi to'rt yil mobaynida 48 foizga, 1965-yilda esa 1 milirad 619 million rublga oshdi[11].

Mart plenumi qarorlari respublika kolxoz va sovxozlari ekonomikasini mustahkamlash, qishloq aholisini turmush darajasini yaxshilashda nihoyatda katta rol o'ynadi. Kolxoz va sovxozlarga ko'plab imtiyozlar: paxtachilikda 50 foiz ustama joriy etildi, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari xarid narxlarini ham oshirildi, daromad solig'ini hisoblash tizimi o'zgartirildi, qishloq xo'jalik mashinalari va ehtiyot qismlari narxlarini pasaytirildi.

Yangi hukumatning sotsializmni rivojlantirish dasturi kolxoz-sovxoz ishlab chiqarishni intensivlashtirish jarayonini jadallashtirdi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti "markaz" ko'rsatmalariga muvofiq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning istiqbolli yo'nalishlari:

-kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni joriy etish;-qishloq xo'jalik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish;

-ximiyalash;

-irrigatsiya va melioratsiyani rivojlantirish;

-argrasanot integratsiyasi negizida qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirishni[12. –s. 33-35.] belgilab berdi.

Bir so'z bilan aytganda, butun xalq xo'jaligi yangi, iqtisodiy stimullarga asoslangan, manfaatli ishlab chiqarish tizimiga o'tdi. Kurs, asosiy e'tiborini og'ir sanoat negizida xalq xo'jalik tarmoqlarini tubdan isloh qilish, ilm-fan hamda zamonaviy texnika yutuqlari o'rtasidagi aloqani mustahkamlashga

TARIX

qaratdi. Endi mahsulotning umumiy hajmi (yalpi maxsulot) emas, balki realizatsiya qilingan mahsulot hajmi ishlab chiqarish korxonalari ishining asosiy ko'rsatgichi bo'lib qoldi. O'zbekiston SSRning Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona va Xorazm obastlarida partiya tashabbusi bilan tashkil etilgan ilmiy-ishlab chiqarish anjumanlari yangi iqtisodiy islohotlar dasturini tag'rib qilishda muhim ahamiyat kasb etdi, mehnatkashlarning iqtisodiy bilim darajasini oshirdi, ko'plab korxonalarda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi iqtisodiy maktablar, seminarlar, kurslar tashkil etildi.

Qishloq aholisiga islohotlarning tub mohiyatini tushuntirish maqsadida ko'plab oblast va rayonlarda iqtisodiy kengashlar tuzildi. Bir qator kolxoz va sovxozlarda brigada, ta'mirlash masterskoylari mutlaqo xo'jalik hisobiga o'tkazilib, 90 foiz kolxozlarda kolxozchilar mehnatga pul bilan haq to'lana boshlandi[13].

Xo'jalik yuritishning yangi tizimi kolxoz va sovxozlarga davlat tomonidan beriladigan imtiyozlarni hajmini ko'paytirdi. 1966-yil yanvaridan boshlab kolxoz va sovxozlar sotib oladigan avtomobillar, traktorlar, qishloq xo'jaligi mashinalari va ularning ehtiyot qismlari hamda elektr energiyasi narxlari kamaytirildi. Dehqonchilik madaniyatini, erning hosildorligini oshirish masalasi (1966 yil) may Plenumida muhokama qilinib, erlarni melioratsiya qilish sohasida 10 yillik istiqbolli dastur qabul qilindi[14]. Dehqonchilik madaniyatini oshirish - paxta-beda almashlab ekish sxemasini to'g'ri tashkil etishni taklif etdi. Shu munosabat bilan respublika hukumati bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etiga qaratilgan maxsus "Kolxoz va sovxozlarda almashlab ekish sxemasini o'zlashtirish hamda bedachilikni rivojlantirish to'g'risida" gi qaror qabul qildi. Shuningdek, qishloq xo'jaligida urug'chilik va selektsiya ishlarini yaxshilash maqsadida qishloq xo'jalik ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini jonlantirish, paxtaning erta pishar va viltga chidamli urug'larini yaratish masalalariga e'tibor kuchaydi[15]. Xullas, Kasigin kursi nazariy va amaliy jihatdan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida tub islohotlar debochasi bo'lgan bo'lsa, birinchi sekretar L.Brejnev tashabbusi bilan ajratilayotgan kapital mablag'lar uni ro'yobga chiqarish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yangi strategiyasi – markazlashgan byurakratik boshqaruvdan, shaxsiy tashabbus hamda moddiy manfaatdorlikka asoslangan intensivlik tomon burildi. Asosiy urg'u intensivlashga berilib, xalq xo'jaligi har bir tarmog'ida ichki yuksalishni ta'minlash, markazlashtirish evaziga xalq xo'jaligi o'sish sur'atlarini jadallashtirishga harakat qilindi.

Qishloq xo'jaligini intensiv asosda yurgizish ishlab chiqarishga fan muvaffaqiyatlari va ilg'or tajribani joriy etishni taqazo qiladi. O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi tizimida Kasigin islohotlari ta'siri haqida gap borganida, islohotlar iqtisodiy yo'nalishda amalga oshirilishi belgilangan bo'lsa-da, bu tizimda ijtimoiy va siyosiy maqsadlar ham ko'zga tashlanishini ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

Kasigin kursi qishloq xo'jaligi ixtisoslashivuni chuqurlashtirishning yirik dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishga ham asos bo'ldi. Dastur har bir kolxoz va sovxozni tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, hudud kesimida iqtisodiy tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu jumladan, paxtachilikka ixtisoslashgan kolxoz va sovxozlarni ixtisoslashuv darajasini oshirdi. Paxtachilikka ixtisoslashgan uch yirik rayon: Mirzacho'l, Surxon-Sherobod vodiysi, Qarshi cho'li rayonlari tashkil etildi[16]. 1964-1970 yillar mobaynida 243 ixtisoslashgan sovxozlar tashkil etishga e'tibor qaratildi, shundan: 78 ta paxtachilik, 29 ta sholikorlik, 10 ta uzumchilik-bog'dorchilik, 13 ta sabzavot-sutchilik, 10 ta sutchilik, 20 ta bo'rdoqichilik va yirik shoxli chorvani o'stirish, 24 ta qorako'lchilik va 5 ta sabzavot-go'shtchilik sovxozlari[17].

Respublikaning asosiy ixtisosligi paxta o'ta sermehnat tarmoq hisoblanib, shu kungacha kompleks mexanizatsiyalashni kutayotgan, ammo amalda buni iloji bo'lmay kelayotgan dolzarb masala edi. KPSS Markaziy Komitetining 1965-yil mart Plenumidan keyingi tarmoqni zamonaviy texnika bilan qurollanish darajasini sezirali oshirildi. Bunda sanoat korxonalari, jumladan, qishloq xo'jaligi mashinalari, kimyo sanoati hamda ilmiy - tadqiqot muassasalari hal qiluvchi rol o'ynadi. Resublika olimlari va konstrukturlari tomonidan paxtaga ishlov berish, terish, umuman paxtachilikni kompleks mexanizatsiyalash ishlarini qizitib yubordilar. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining eng quyi bo'g'ini bo'lgan har bir xo'jalik, islohotlar ta'sirini o'zida yaqqol his eta boshladi. Surxondaryo oblasti kolxozlaridan biri misolida olib ko'raylik, besh yillik davomida faqat paxta terish mashinalaridangina esa, ikki yarusli puluglardan, zaharli ximikatlarni sepish apparatlaridan, g'o'za bargini chekanka qiluvchi, ko'rak teruvchi hamda ko'sak tozalovchi mashinalardan samarali foydalandi. Besh yillik mobaynida kolxozdagi qishloq xo'jalik mashinalari soni bir yarim baravar, jumladan haydov traktorlari 10 ta, paxta terish mashinalari esa 6 taga ko'paydi[18. –b. 24-25.].

Sakkizinchi besh yillikda respublika miqyosida qishloq xo'jaligi uchun 85 ming ta turli markadagi traktorlar, 19,3 ming ta paxta terish mashinalari, 14,5 yuk mashinalari, 5,9 ming ta kambayinlar, 5,4 ming ta skreper va buldozer, 2,9 ming ta ekskavator va boshqa ko'plab texnikalar etkazib berildi[19. –c. 42.]. Ushbu jadallikni to'qqizichi besh yillikda ham kuzatish mumkin edi. 1970-1975 yillar respublikada qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash darajasi 1,65 baravraga o'sdi[20. –b.17.].

1965 – 1970 yillar sovet hukumati hukmron bo'lgan bir butun davrning eng salmoqli yillari sifatida O'zbekiston tarixiga muhrlandi. Birgina Namangan oblastini misol qilib olgandi, 1970 yilda mashina bilan 54080 tonna paxta terib olingan bo'lsa, 1975 yilda bu ko'rsatgich 187089 tonnani tashkil qildi. Hisob-kitoblar natijasida aniqlandi-ki, oblast kolxozlari bo'yicha mashina terimi solmog'ini 80 foizga etkazilishi faqat yig'im terim vaqtidagina xarajatlarni 4245 ming so'mga kamaytiradi[21. –b.33].

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini intensivlash muayyan tabiiy va iqtisodiy sharoitda mehnat va mablag'larni kam sarf qilgan holda, g'oyatda ko'p mahsulot olish imkonini beradigan dehqonchilik tizimini qo'llashni talab etdi. Dehqonchilik tizimi tuproqning mahsuldorigini oshirish va shu asosda mehnat unumdorligini o'stirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi[22.]. O'zbekiston sharoitidan kelib chiqilganida tuproq unumdorligini oshirishda melioratsiya o'ta muhim tadbir hisoblanadi. 1962-1966 yillar mobaynida suv xo'jaligi qurilishiga ajratilgan kapital mablag'lar hajmi 3 baravarga ortdi. Masalan, Xorazm oblastiga 1964-yil mart plenumi qaroriga muvofiq 267 million rubl ajratilib, zudlik bilan sug'orish ishlarini boshlanib ketdi. "Tuyamuyunstroy" tresti quruvchilari Tuyamuyun suv beruvchi kanali tuproq ishlarini jadallik bilan boshlab yubordilar. Umuman, respublikada bu davrda 247 ming ga sug'oriladigan yangi er tayyorlandi. Mirzacho'lda yangi, yirik paxtachilik rayonini tashkil etish maqsadida ulkan kurash maydoni vujudga keldi. Hukumat tomonidan qaratilgan e'tibor tufayli respublika xo'jaliklarida melioratsiya ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus brigadalar tuzildi. 1966 - 1970 yillar respublika bo'yicha 500 ming ga urning meliorativ holati yaxshilandi. O'zbekistonning meliorativ tizimlari nafaqat ochiq zovur-kollekt kanallari bilan balki, Mirzacho'l, Sherobod dashtida, Samarqand, Sirdaryo oblastlaridagi yangi yopiq hamda vetikal zovur tarmoqlari ham taraqqiy etib bordi[23]. Mubolag'asiz aytish mumkinki, melioratsiyaning ana shu takomillashgan usulini loyihalash va joriy qilishda O'zbekiston ittifoqda etakchilik qilardi.

Yangi er o'zlashtirish tadbirlari davom ettirildi. Mirzacho'l, Qarshi dashtlari, Surxon-Sherobod, Markaziy Farg'ona va Amudaryo etaklarida katta hajmda qo'riq o'zlashtirish ishlari olib borildi. Shu bilan birga ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa qurilishlar – masteriskoy, chorvachilik fermasi, yo'llar, elektrlashtirish va gazlashtirish, uy-joy va madaniy-maishiy inshootlar qurib foydalanishga topshirildi[24].

Joriy etilgan iqtisodiy islohotlar qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarida, qisqa fursatlarda o'zining natijalarini ko'rsata boshladi. Uzoq yillar go'sht etishtirish majburiyatini bajarishga urunib kelayotgan Xorazm oblasti chorvadorlari o'zlari erishgan natijalarni ommaga mamnuniyat bilan, tantanali e'lon qilishga tutindilar. Chunki, oblast kolxozlari go'sht etishtirishni 1965 yil 1953 yildagiga qaraganda 4,8 ming tonna, sutni – 10,2 tonna, junni – 134,3 tonna, tuxumni – 1,7 million dona, qorako'l terini – 11,8 ming dona ko'paytirdilar. Shu davr mobaynida chorvachilik mahsulotlari – go'sht tayyorlash (tirik vaznda) 2,8 baravar, sut va sut mahsulotlari – 3, 4 baravar, tuxum – 4,2 baravar, jun- 2,5 baravar, qorako'l teri – 1,4 baravar oshirildi[25].

Partiyaning XXIII s'ezdi, SK KPSS mart va may oylari bo'lib o'tgan Plenumi qarorlari Amudaryo havzasida yirik sholichilik rayoni tuzilishini tasdiqladi. Jumladan, Qoraqalpog'iston ASSRda sholikorlikni rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirildi, suv ta'minoti yaxshilandi va meliorativ tarmoqlar qurildi, bu esa paxta, sholi va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorilini oshirish hamda ishlab chiqarishni jadallashtirishga imkon berdi. Qoraqalpog'istonda 1966 yil 1963 yilga nisbatan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yalpi hajmi 120 million rubldan 190 million rublga oshdi va oxirgi uch yilda, o'tgan uch yillikka nisbatan paxta tayyorlash yillik o'rtacha 217 ming tonnadan, 268 ming tonnagacha yoki 26,%, sholi – 13,2 ming tonnadan 30,3 ming tonnaga yoki 2,3 martaga o'sadi[26. –b . 5].

XULOSA

Qishloq xo'jaligini 1966 - 1970 yillarda rivojlantirish besh yillik planining muhim xususiyati shunda edi-ki, u bevosita kolxozlar va sovxozlarning o'zlarida ishlab chiqilgan besh yillik planlar asosida tuzib chiqildi, shuning uchun ham u real sharoitlar va imkoniyatlarga tayanadi. Binobarin, kolxozlar mehnatiga oy sayin kafolatganlan haq to'lashni joriy qilishdan iborat ijtimoy - iqtisodiy

TARIX

tadbirlar qishloq xo'jalik xodimlarining ijtimoiy ishlab chiqarishini rivojlantirishdan shaxsiy manfaatdorligini oshiradi, ularni ijodiy faollikka da'vat etadi. Muxtasar qilib aytganda, A.N.Kasigin islohotlari ta'sirida o'tgan sakkizinchi besh yillik O'zbekistonSSR qishloq xo'jaligi mahsuloti yalpi hajmi 1965 yilda 1960 yildagiga nisbatan 22 % ko'payib, yillik o'rtacha o'sish sur'atlari 4,1 % tashkil etgan bo'lsa, 1970 yilda u 1965 yildagiga nisbatan 33 % oshadi va yillik o'rtacha o'sish sur'ati 5,8 % tashkil etadi[27. –b. 58-59].

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Г.В. Алексей Касыгин - человек и реформатор/Г.В.Будкевич//Историко-экономические исследования. – 2015. –Т.16, №3. –С. 442. –DOI:10.17150/2308-2588.2015.16(3).430-453
2. Коваленко С.Г. 20 лет советских реформ: Была модернизация на Дальнем Востоке? –Владивосток: Дальнаука, 2010. –С. 181.
3. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК(1925-1986). В 4-х т. (Т. 3. 1960-1975) Т.: Узбекистан, 1988, -С. 279.
4. КПСС XXIII съездининг материаллари. Т., Ўзбекистон, 1966.–Б. 256
5. Н.Ж.Худойбердиев. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини социалистик асосда қайта қуришда колхоз ва совхозларнинг роли/Ўзбекистон колхоз ва совхозлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1-китоб. 1969. –С. 24.
6. Ўзбекистон Миллий Архиви 837-фонд, 10-рўйхат, 6541-йиғма жилд, 45-варақ
7. Правда Востока 1966 год, 5 март
8. Ўзбекистон Миллий Архиви 837-фонд, 10-рўйхат, 6541-йиғма жилд, 58-варақ
9. Ўзбекистон Миллий Архиви 837-фонд, 10-рўйхат, 6541-йиғма жилд, 67-варақ
10. Правда Востока 1966 год, 5 март
11. Р.Х.Аминова. Колхозное крестьянство Узбекистана за 60 лет. //Общественные науки в Узбекистане. 1984. №10. -С. 33-35.
12. Правда востока 1966 год, 5 март
13. Ўзбекистон Миллий Архиви 837-фонд, 11-рўйхат, 4569-йиғма жилд, 258-варақ
14. Бухоро вилоят давлат архиви 1023-фонд, 1-рўйхат, 569-йиғма жилд, 213-варақ
15. Ўзбекистон Миллий Архиви 90-фонд, 10-рўйхат, 3256-йиғма жилд, 421-варқ.
16. Бухоро вилоят давлат архиви 1023-фонд, 1-рўйхат, 56-варақ
17. К.Бўронов. Довонлар ошиб....//Ўзбекистон колхоз ва совхозлари тарихи. Очерклар 9-китоб, Тошкент.: Ўзбекистон, 1980. –Б. 24-25.
18. С.К.Зиядуллаев. Планирование и развитие экономики Узбекскос ССР. Ташкент, Узбекистан, 1972, -С. 42.
19. Ж.Жалолов., Х.Рихимов. Қишлоқда моддий-техника таъминотини яхшилаш. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 1977 йил, №9. -Б.17.
20. Е.Эргашев. Механизациялаштириш резервлари.//Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 1976 йил. №11. -Б.23.
21. Поляков Н.А. Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг асосий йўли. Т., Қизил Ўзбекистон", "Правда Востока" ва "Ўзбекистонни Сурх", 1963. –Б.33.
22. Ўзбекистон Миллий Архиви 2483-фонд, 1-рўйхат, 365-йиғма жилд, 85-варақ
23. Ўзбекистон Миллий Архиви 2483-фонд, 1-рўйхат, 365-йиғма жилд, 85-варақ
24. Ўзбекистон Миллий Архиви 837-фонд, 8-рўйхат, 7885-йиғма жилд, 32-варақ
25. С.Каримов. Чорвачиликни интенсивлаш. Т., Ўзбекистон КП МКнинг нашириёти, 1964. –Б . 5.
26. Ўзбекистон Миллий Архиви 90-фонд, 10-рўйхат, 6548-йиғма жилд, 123-варақ
27. Зиёдуллаев С. Ўзбекистон янги беш йилликда. 1966-1970 йиллар. Т., Ўзбекистон, 1968. –Б. 58-59